



KISHILIK TARIXIDA INSONPARVARLIK G‘OYALARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Feruza G‘OZIYEVA

IIV Farg ‘ona akademik litseyi huquq fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Insonparvarlik g‘oyalari har xil millat va xalqlarning tarixiy rivojida boshidan kechirgan muhim vaziyatlar, yangilanishlar va ijtimoiy yondashuvlar asosida mustahkam bo‘lib borgan. Ushbu maqolada ana shu insonparvarlik g‘oyalarining kishilik tarixidagi shakllanishi haqida so‘z yuritildi.

Kalit so‘zlar: insonparvarlik, g‘oya, ijtimoiy tarbiya, alloma, tadqiqot, fikr, qadriyat

Abstract: Humanistic ideas have been strengthened in the historical development of various nations and peoples based on important situations, innovations and social approaches. This article discusses the formation of these humanistic ideas in human history.

Keywords: humanism, idea, social education, scientist, research, thought, value.

Аннотация: Гуманитарные идеи укрепились на основе важных ситуаций, обновлений и социальных подходов, испытанных различными нациями и народами в их историческом развитии. В данной статье говорится о формировании этих гуманитарных идей в личной истории.

Ключевые слова: гуманизм, идея, социальное образование, аллома, исследование, мысль, ценность.

Shaxsda insoniylik fazilatini yuzaga chiqarish, rivojlantirish masalasi tarbiya g‘oyalari shakllangan, pedagogik fikrlar dastlabki vujudga kelgan paytdan boshlab tadqiq etilgan. Shaxsda insonparvarlik fazilatini shakllantirish, rivojlantirish masalasi o‘z mazmuni, ijtimoiy roliga ko‘ra klassik xususiyatga ega. Ya’ni ushbu masala



barcha zamon va makonlarda shaxs tarbiyasini tashkil etishda markaziy o‘rin egallagan.

Insoniyat tarixidagi ilk insonparvarlik g‘oyalarining eramizdan avvalgi uchinchi ming yillikda shakllangan. Aynan shu vaqtida Qadimgi Xitoyda Konfutsiy g‘oyalari keng yoyiladi. Ijtimoiy falsafa tarixida Konfutsiy ilk insonparvar-pedagog va faylasuf sanaladi.

Konfutsiy ijtimoiy tarbiyaning asosini belgilar ekan, barcha uchun namuna bo‘la oladigan shaxs qiyofasini yaratadi. “Allomaning g‘oyalarida komil inson o‘zida boshqalarga muhabbatli, shafqatli, insonparvar bo‘lishi; barcha ishda odillik; rasm-rusum, odob-axloq qoidalariga amal qilishi; fahmli, sog‘lom fikrlovchi, bunyodkor bo‘lishi; erkin, halol, vijdonli bo‘lishi”¹.

Mashhur pedagog va faylasufning ta’limoti to‘liq insonparvarlik g‘oyalariga asoslangan. Xususan, allomaning “O‘zingga ravo ko‘rmagan narsangni boshqalarga ham ravo ko‘rma”, “Insonparvar odam – insonlarni yaxshi ko‘radi”, “Ota-onani avaylash, aka-ukalarning so‘ziga qulqoq tutish – insonparvarlikning asosi”, “Tilida mehribon bo‘lgan kishilarda insonparvarlik oz bo‘ladi”, “Yoshlar o‘z uyida ota-onasini, aka-ukalarini so‘zsiz e’zozlashi, ostona hatlab ko‘chaga chiqqach esa yor-u do‘sst va kattalarning hurmati-izzatini joyiga qo‘yishi, ishga mas’uliyat, ehtiyotkorlik bilan yondashishi, bergen va’dasida turishi, xalqiga mehr qo‘yishi va insonparvar kishilarga yo‘ldosh bo‘lishi kerak”, “Insonparvarlik fazilatiga ega bo‘lmagan kishi uzoq vaqt qashshoqlikda ham farovonlikda ham yashay olmaydi. Insonparvar kishiga insonparvarlik huzur bag‘ishlaydi. Aqli odamga insonparvarlik foyda olib keladi”, “Kimki chin dildan insonparvarlikka intilsa, u hech qachon yomon ishlash qilmaydi”, “Olijanob inson tamaddi qilayotganda ham insonparvarlikka orqa o‘girmaydi. U nihoyatda tig‘iz soniyada ham insonparvarlikka tayanib ish ko‘radi. Jahon kezib sargardonlikda yurganida ham insonparvarlikka amal qiladi”² kabi qarashlari insonparvarlikning asosi sanaladi.

¹ Помелов В. Б. 100 великих педагогов. – М.: Вече, 2018. – С. 10.

² Конфуций. Сұхбат ва мулоҳазалар. – Т.: Янги аср авлоди, 2014. – 7-41-6.



Rossiyalik tadqiqotchi V.B.Pomelovning fikricha, insonparvarlik qadriyatlari Rim va Yunonistonda yashab o'tgan avangard pedagoglar, xususan, Suqrot, Aristotel, Platon, Mark Tulliy Sitseron, Mark Fabiy Kvintilian, Kirill va Mefodiy, ta'limotining xarakterli, o'ziga xos xususiyati bo'lgan³. Jumladan, "buyuk alloma Suqrotning ijtimoiy-falsafiy fikrlari markazida inson turadi. Mutafakkir "inson imkoniyatlarini yuqori baholaydi. Tarbiya aynan mana shu imkoniyatlarni amalga oshirishga xizmat qilishi zarur", deb hisoblaydi. Chunonchi, "Har bir inson – quyosh, faqat unga nur sochishi uchun imkoniyat berish kerak".

A.V.Povilaytisning ta'kidlashicha, "insonparvarlik tushunchasi bizning davrimizgacha bo'lgan yillarda yuzaga kelgan va hanuzgacha ahamiyatini yo'qotmagan. Shu bilan birga tushunchaning o'zi muammoli, bahsli xarakter kasb etadi"⁴. Mazkur fikrning asosini insonparvarlik masalasini o'rganishga bo'lgan yondashuvlarning turlichaligi tasdiqlaydi. Muallif o'zi tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ko'rsatkichlariga suyangan holda quyidagicha xulosaga keladi: yuz yillar davomida insonparvarlik g'oyasining keng targ'ibida hech bir evolyutsiya yuz bermagan.

Gumanizm g'oyasi dialektikasidagi dinamik o'zgarishning mohiyatini tahlil qilganda, ta'kidlash joizki, tarixiy rivojlanish jarayonida ro'y berayotgan hodisa aslida takrorlanishdir, ya'ni insonlarga muhabbat, ularning qadr-qimmatini e'zozlash va huquqlarini himoya qilish muammolariga doimiy qaytishdir. Shu bilan birga, insonparvarlik masalasiga yondashuvda, ayniqsa jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy sohasida, uni muayyan davr doirasida hukmron sinf yoki guruh manfaatlariga moslashtirish urinishi kuzatiladi.

Qadimgi dunyo falsafasida "insonparvarlik" tushunchasining ilk bor qo'llanilishi rimlik faylasuf va siyosiy arbob Mark Tulliy Sitseron (er.av. 106-43-yy.)ning faoliyati bilan bog'liq. Mutafakkir o'z siyosiy faoliyatida "ba'zi imkoniyatlardan foydalanish faqat yuqori sinf vakillariga xos bo'lmasligi, balki undan jamiyatning erkin va huquqli fuqarolari birdek foydalanishi zarur, degan

³ Помелов В.Б. Традиция гуманизма в истории зарубежного образования / Монография. – Киров: Вятский государственный университет, 2020. – С. 14.

⁴ <http://elibrary.ru>

g‘oyani ilgari suradi”. Sitseronning ushbu shaklda aks etgan gumanistik qarashlari shaxs qadr-qimmatini belgilovchi ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar uchun asos bo‘lib xizmat qilgan.

Tadqiqotchilar gumanizm g‘oyasining rivojlanish bosqichlari va yo‘nalishlarini o‘rganib, Sitseron tomonidan uning turli hudud va davrlardagi panoramasining turli qirralarini tahlil qilishda olg‘a surilgan” ushbu g‘oyani quyidagicha baholaydilar: “Gumanizmning mazmunini ma’no jihatidan kengaytirib, termin o‘zining aristokratik talqini doirasidan chiqib ketishini ta’minlaydi. Ya’ni Sitseron g‘oyalarida aks etgan insonparvarlik g‘oyasi ta’lim ham, tarbiya ham emas, balki umumiylidir.

Insoniyat ongi bilan bog‘liq fikrlash jarayonida o‘z insonparvarlik g‘oyalari bilan alohida o‘rin tutgan mutafakkirlardan yana biri – Rimning notiqlik san’ati tamal toshini qo‘ygan Mark Fabiy Kvintilian bo‘lib, u o‘zining pedagoglik, notiqlik faoliyatida bolalarni jamoada tarbiyalashga alohida e’tibor beradi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar nutqining rivojlanishida o‘yin, o‘zaro muloqot hamda bellashuvning ahamiyatiga yuqori baho beradi. Pedagog sifatida bolalar tarbiyasida qattiqqo‘llikni rad etadi, tarbiyaning natijasiga ishonadi. Bolalarni boshqalarga ezgulik ulashishga chorlab, ularda atrofdagilarning ahvoli, ayniqsa, jiddiy ruhiy kechinmalari, qayg‘ulari uchun hamroh bo‘lish, kattalarni hurmat qilish kabi insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash zarur, deb hisoblaydi. Mark Fabiy Kvintilian bolalarni insonparvarlik g‘oyalari asosida tarbiyalashda Mark Tulliy Sitseronni boshqalarga namuna qilib ko‘rsatadi.

Insoniyat tarixida bir qancha mutafakkirlar insonparvarlik haqida fikr aytganda, eng avvalo, jamiyatning gumanizm g‘oyalariga tayanilishi kerakligiga ahamiyat qaratadi. Ularning g‘oyalariga ko‘ra, jamiyatda gumanizmning shakllanishi o‘z navbatida kishilarning ruhiyati va ma’naviyatini ham shakllantirishga ko‘maklashadi. Ayni shu maqsadda insonparvarlik g‘oyalari g‘lib chiqqan ideal jamiyat obrazini yaratishga harakat qilgan qomusiy allomalar sirasiga Platon (er. av. 428/427 yoki 424/423 hamda 348/347-yy.), Aristotel (er.av. 384-322-yy.), Abu Nasr Farobi (er. 873-950-yy.), Tomas Mor (1478-1535-yy.)



kabilarni kiritish mumkin.

Inson jamiyat rivojining turli yillarida insoniyatning o‘z sha’ni, or-nomusi, qadr-qimmati hamda haq-huquqlarini himoya qilishga nisbatan ijtimoiy ehtiyoji insonparvarlik g‘oyalarining yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Barcha jamiyatda fuqarolarning faol qismi bo‘lgan ziylolilarning inson mustaqil, huquqlarini muhofaza qilish, qadr-qimmatini yuksaltirishga bo‘lgan harakati, bu borada olib borgan faol urinishlari sababli insonparvarlik g‘oyalari borgan sari mustahkamlanib borgan. Natijada yagona bir g‘oya ko‘rinishida umumbashariy gumanizm g‘oyasi shakllangan. Ushbu g‘oya hozirgi vaqtda ham nafaqat o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda, balki tobora keng yoyilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Помелов В. Б. 100 великих педагогов. – М.: Вече, 2018. – С. 10.
2. Конфуций. Сұхбат ва мұлоҳазалар. – Т.: Яңғы аср авлоди, 2014. – 7-41-б.
3. Помелов В.Б. Традиция гуманизма в истории зарубежного образования / Монография. – Киров: Вятский государственный университет, 2020. – С. 14.
4. <http://elibrary.ru>